



TIL KO'NIKMALARINI AMALDA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS METODLARI

**Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, 11-
umumiy o'rta ta'lim maktabining Ingliz tili fani
o'qituvchisi – Abdunazarova Nargiza
Uktamboyeвна**

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tilni umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etishda o'ziga xos metodlardan foydalanishning samarqadorligi qisqacha ochilgan bo'lib, bugungi kunda zamonaviy XXI asr metodlaridan biri bo'lgan interfaol metodlarning o'rnini yoritib bergan.

Kalit so'zlar: 4K metodi, ko'nikma, didaktik tizimlashtirish, CEFR, Prepare, IELTS, TOEFL.

Bugungi kun yoshlariga chet tillarini mukammal o'rganishlari uchun dars jarayonida an'anaviy metodlardan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion yondashuv asosida turli xil interfaol metodlardan foydalanib, ularni

Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish 4K modeli, ya'ni:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical thinking);
2. Kollaboratsiya (Team Work) (jamoaviy ishlash);
3. Kreativlik (Creativity – ijodkorlik);
4. Kommunikatsiya (Communicative skills – muloqot ko'nikmalari)"ni shakllantiruvchi yangi avlod darsliklaridan foydalanilmoqda.

Yuqori sinf o'quvchilarining "Prepare" darsliklaridagi materiallar o'quvchilarda listening (tinglab tushinish), reading (o'qib tushinish), writing (yozish) va speaking (gapirish) ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirish orqali xorijiy tilning grammatikasini o'rganish bilan cheklanib qolmay, kommunikativ kompetensiya ya'ni muloqot qilish qobiliyatini oshirish, o'z fikrini erkin bayon qilishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yuqoridagi 4 ko'nikmani egallagan o'quvchi xorijiy tillarini bilish darajasiga, ya'ni xalqaro IELTS (International English Language Testing System), TOEFL (Test of English as a Foreign Language) va milliy CEFR (Common European Framework of Reference) kabi sertifikatlarni olishga tayyor bo'ladi. Bunday sertifikatlarni olgan o'qituvchi va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish qonunchiligimizda ham belgilab qo'yilgan.

CEFR/Multilevel imtihonlariga tayyorlab borish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. CEFR tizimida 4 ta ko'nikma bo'yicha egallangan bilimla tekshiriladi. Bular



quyidagilar:

1. Tinglab tushunish (Listening) bo‘limi: eshitilgan audiomatnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko‘nikmalari tekshiriladi.

2. O‘qib tushunish (Reading) bo‘limi: har xil janrlardagi matnlarning asosiy mazmuni va detallarini tushunish ko‘nikmalari tekshiriladi.

3. Yozish (Writing) bo‘limi: berilgan vaziyat yoki mavzu asosida, topshirilayotgan darajaga mos leksika va grammatikani qo‘llagan holda xat va insho yoza olish ko‘nikmalari tekshiriladi.

4. Gapirish (Speaking) bo‘limi: savollarga javob bera olish, og‘zaki taqdimot qila olish, muammoga nisbatan o‘z fikrini bildirib asoslab bera olish ko‘nikmalarini tekshiradi.

Yuqoridagi ko‘nikmalardan reading (o‘qib tushinish) ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi quyidagi interfaol metodlardan samarali foydalanishi mumkin.

“O‘ylang – Juftlaning – Ayting” metodi

Bu metod orqali o‘qituvchi katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida o‘quvchilarga yetkazishi, ularning mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Ayniqsa, mavzuni tez va samarali tushuntirish zarur bo‘lgan paytda juda foydali.

Metodning asosiy bosqichlari:

1. O‘ylang

- O‘qituvchi mavzuga oid asosiy axborotni qismlarga bo‘lib, kartochkalarga yozadi.
- Har bir o‘quvchi o‘z kartochkasidagi ma’lumotni o‘qib, tushunishga harakat qiladi.
- 1-2 daqiqa vaqt ajratiladi.

2. Juftlaning

- O‘quvchilar juftlikda ishlaydi va bir-biriga kartochkadagi ma’lumotni tushuntiradi.
- Bu orqali o‘rgangan bilim mustahkamlanadi.
- 2-3 daqiqa vaqt ajratiladi.

3. Ayting

- Har bir o‘quvchi o‘rgangan va juftiga tushuntirgan axborotni butun sinfga bayon qiladi.
- Shu tariqa sinf umumiy bilimga ega bo‘ladi.

Metodning afzalliklari:

- O‘quvchilarga katta hajmdagi berilgan o‘qib tushunishga oid matnni qisqa muddatda o‘zlashtirish imkonini beradi;
- Lug‘at bilan bog‘liq bo‘lgan muammoni bartaraf etishda kata yordam beradi;
- Mustaqil o‘rganish va boshqalarga tushuntirish ko‘nikmasini shakllantiradi
- Muloqot, fikr bildirish va nutq qobiliyatlarini rivojlantiradi;



- Barcha o'quvchilarni darsga faol jalb qiladi

Ushbu metoddan yuqori sinf o'quvchilarida foydalanilsa, dars samaradorligini oshiradi hamda shuningdek, o'quvchining qiziqish va diqqatini oshirishga katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jalolov J.J. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi //Xalq ta'limi. 2013 yil, 4-son. - B.44-75.
2. Shayakubov Sh.K., Ayubov R.X. "Interfaol ta'lim usullari" o'quv uslubiy qo'llanma.
3. <https://net.educause.edu/ir/library/pdf/NLI0547B.pdf>.